



## TURLI YOSH DAVRLARIDA XOTIRA JARAYONLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Kamolova Raximaxon Abdullayevna**

Namangan shahar maktabgacha va maktab  
ta'limi bo'limiga qarashli 15-maktab psixologi

**Annotatsiya:** Maqolada turli yosh davrlarida xotiraning rivojlanishi, xotira haqidagi nazariyalar, uning mexanizmlari, nervfiziologik asoslari, yosh davrlarida xotira xususiyatlari haqida yoritilgan

**Kalit so'zlar:** xotira, yosh, harakat, obraz, amneziya, kichik maktab yosh davri, rivojlanish, tasavvur, mexanik xotira, mantiqiy xotira, esda saqlash, assotsiativ va logik esda qoldirish.

### Kirish

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlardan o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarni oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayoning samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plagan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda. Ta'lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari ulardan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimlar, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda pedagogik texnologiya amal qila boshladi. Insonning butun aqliy taraqqiyoti asosan xotiraning



taraqqiyotidan iborat ekan, xotira bola hayotining dastlabki kunlaridan boshlaboq rivojlana boshlaydi. Bolada xotiraning dastlabki alomatlari yaqin atrofidagi odamlarni va narsalarni tanishida ko'rina boshlaydi. Buni biz bola o'ziga tanish bo'lgan narsani ko'rganida qiladigan harakatlardan bilishimiz mumkin. Masalan, bola o'ziga yaqin odamlarni ko'rganida unga talpinadi yo notanish odamdan yotsiraydi. Kichik yoshli bolalarda tanib olish qobiliyatining borligi, idrok qilgan narsa va hodisalarini esda olib qolish imkonini beradi. Yoshiga to'lgach, bolada xotiraning murakkab turlari, ya'ni eslash vujudga kela boshlaydi. Bolalar bu davrdan boshlab ilgari idrok qilgan narsa va hodisalarni eslay oladigan bo'ladilar. Bunda bolalar tasavvurlarining roli nihoyatda kattadir. Tasavvurlari tufayli bolalar o'tgan narsalarni bemalol eslay oladilar, masalan, bolaga ko'z o'ngida bo'lmagan narsaning nomini aytsangiz, u ko'zlari bilan chor atrofqa qarab shu narsani izlay boshlaydi. Bola xotirasining rivojlanishida nutqining o'sishi juda katta ahamiyatga ega. Bu davrda bola narsa va hodisalarni faqat bevosita ko'rish orqali emas, balki shu narsa va hodisalarning nomlari orqali ham idrok qila oladigan bo'ladi. Bundan tashqari ular kattalardan so'rab bilib olish, eshitish orqali ham o'z xotiralarini boyitadilar Xotira - idrok etilgan narsa va hodisalarni yoki o'tmish tajribalarini va esda qoldirish va zarur bo'lganda tiklashdan iborat psixik jarayon. Xotira eng yaxshi damlarni esda qoldiradi. U nerv sistemasi xususiyatlaridan biri bo'lib, tashqi olam voqealari va organizm reaksiyalari haqidagi axborotni uzoq saqlash hamda uni ong faoliyatida va xulq, xatti harakati doirasida takror chiqarish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Ilk bolalik davridagi bolalarda xotiraning barcha jarayonlari ko'rina boshlaydi. Masalan, kichik yoshdagi bola dastavval mexanik ravishda, ya'ni ma'nosiga tushunmasdan esda olib qolaveradi. Buning o'ziga xos jihati bor, albatta. Birinchidan, yuqorida aytib o'tganimiz kabi bolalarda turmush tajribasi juda oz bo'ladi, ular ko'p nomlarni hali mutlaqo bilmaydilar, lekin hayotda to'qnash kelganlari sababli eslarida olib qoladilar. Ikkinchidan, bolalar asab tizimining plastikligi, ya'ni juda egiluvchanligi kattalarnikidan ham ustunroq bo'ladi. Assotsiativ psixologiya maktabining vakili, taniqli psixolog G.Ebbingauz jahon psixologiyasida birinchi bo'lib oliy ruhiy jarayon bo'lgan xotirani tajriba metodi negizida tekshirgan va keng ko'lamda



turmushga tatbiq etgan. Xotira jarayonini tajriba orqali tekshirishning asosiy yo'nalishini ishlab chiqdi. German Ebbingauz o'z “sof” xotira qonunlarini o'rganish imkonini beruvchi, boshqacha so'z bilan aytganda tafakkurga bog'liq bo'lmagan holda izlarning esda qolish jarayonini tadqiq etishning yangi uslubini taklif qilgan, ya'ni ma'nosiz bo'g'inlarni yod olishdan iborat bo'lgan bu uslub materialni esda olib qolishning egri chiziqiga oid qonunni kashf qilishga, uning asosiy qoidalarini bayon etishga va ana shularning asosida izlarni xotirada saqlanish muddatini hamda asta-sekin so'nish holatini tekshirishga imkoniyat yaratdi. G.Ebbingauz unutishning vaqtga bog'liqligini tajriba orqali o'rganagan. To'plangan natijalarning ko'rsatishicha, materialni yod olgandan so'ng unutishning sur'ati tez keyinchalik esa u birmuncha sekinlashadi. G.Ebbingauz izdoshlari va shogirdlari tomonidan o'tkazilgan juda ko'p tadqiqotlarning ko'rsatishicha unutish sur'ati materialning ma'noli yoki ma'nosizligiga, uning qanchalik anglanilganligiga bog'liqdir. Rus psixologlari tadqiqotlarining natijalari ma'noga ega bo'lgan materialni o'zlashtirishda esda olib qolish uchun turli xil yo'nalish, ko'rsatma berish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda xotiraning yuksak(yuqori) shakllarini birinchi marta tadrijiy ravishda tadqiq qilish taniqli psixolog L.S.Vigotskiyga nasib etgan. U maxsus tekshirishlarning predmeti qilib, xotiraning yuksak shakllarining rivojlanishi muammosini tanlagan va o'z shogirdlari A.N.Leontev va A.V.Zankov bilan birgalikda xotiraning yuksak shakllarini ruhiy faoliyatning murakkabshakli ekanligini, kelib chiqish jihatidan ijtimoiyligini ko'rsatadi. Shuning bilan birga u murakkab, mohiyatiga ko'ra esda olib qolishning asosiy bosqichlari rivojlanishini isbotlab bergan. A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, P.A.Ribnikovlar bolalar xotira faoliyatini o'rganganlar. Shuningdek ular o'qish faoliyatiga asoslangan holda maktab o'quvchilarida tekshirish ishlarini olib borganlar. Ular tomonidan faoliyat nazariyasi ilgari surilib, turli tasavvurlar orasidagi bog'liqlik esda olib qolingan materialning qandayligiga emas, balki odamning u bilan nima qilishiga bog'liqdir. I.P.Zinchenko, M.N.Shardakov, A.I.Lipkinalar tadqiqot ishlarining aksariyati shunga bag'ishlangan bo'lib, turli materialni esda olib qolishda tushunishning ahamiyati muhimligini tasdiqlashga intilgan. Bu materialni esda olib



qolishga to'g'ri yo'nalish berilishining natijasida material mazmunini tushunib olgan hamda esda olib qolish tezligi, aniqligi, mustahkamligi va to'liqligi ta'minlanadi. Esda olib qolishning faoliyat maqsadiga bog'liqligini yoritdilar, murakkab materialni esda olib qolishning oqilona usullarini ko'rsatib berishga muvofiq bo'ldilar. Xotira borasidagi fikrlarda K.D.Ushinskiy o'z mulohazalarini quyidagicha bayon etadi "Bolaning esida biror narsani mustahkam o'rnatib qolishini xohlovchi pedagog boladagi sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini-ko'zi, qulog'i, tovush organi, muskul sezgisi va agar iloji bo'lsa, hidlash va tam bilish-organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak"- deydi. Shu o'rinda yana bir narsani ta'kidlash lozimki, har bir kishining o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Jumladan psixologiyada xotirada eslab qolish jarayonining asosida yoygan bog'lanishlarning ikkita xil ajratilib ko'rsatiladi. Bular esa fanda assotsiativ va logik esda qoldirish deb yuritiladi. Biz odatda birinchi xil assotsiativ eslab qolishda bir vaqtning o'zida va bir joyda birma-bir idrok qilayotgan bir qancha narsa hamda hodisalarning o'zaro obrazlari o'rtasida miyamizda yuzaga keladigan bog'lanishni assotsiativ nom bilan assotsiatsiya deb nomlaymiz. Shuningdek, ayrim mutaxassislarning ilmiy maqolalarida ham xotira jarayoni bo'yicha turli qarashlarni kuzatishimiz mumkin. Umuman, bolaning materialni esda olib qolishini va qayta esga tushirishini tarbiyachi doimo boshqarib borishi zarur. Chunki bog'cha yoshidagi bola xotirasining barcha tiplari o'sa boshlaydi. Biroq shu narsa xarakterliki, xotiraning asosiy turlari orasida (masalan, obrazli, mexanik, matniqiy kabi) harakat xotirasi nisbatan kuchliroq rivojlanadi. Shuning uchun ham turli harakatlarni hamda musiqa ohangida o'ynashni bu yoshdagi bolalar osonlik bilan o'zlashtiradilar. Mexanik tarzda o'zlashtiriladigan nutq materialini ham qisman harakat xotirasiga kiritadi. Shu sababli bog'cha yoshidagi bolalar tez aytiladigan turli ritmdagi she'rlarni bir ikki qaytarishdayoq yodlab oladilar. Masalan, bekinmashoq o'yinini o'ynash oldidan aytiladigan "sanashlar". Bekinmashoq o'yinini o'ynashlarida juda ifodali va jarangli ritmika bor. Bog'cha yoshidagi bolalarda emosional xotira yaxshi bo'lsa ham, lekin xotiraning bu turi bolalarga nisbatan katta odamlarda kuchliroq bo'ladi. Katta odamlar kuchli emosional ta'sir qilgan



ba'zi narsa va hodisalarni hech vaqt eslaridan chiqarmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalar esa kuchli emosional ta'sir qilgan narsalarni ham ba'zan eslaridan chiqarib qo'yishlari mumkin. Bolalar xotirasini o'stirishda tarbiyachi va ota-onalarning nutqi ham nihoyatda katta rol o'ynaydi. Bola bilan gaplashganda nutq sodda, talaffuz aniq va tushunarli bo'lishi kerak

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. P.I.Ivanov. M.E.Zufarova Umumiy Psixologiya,- Toshkent 2004
2. E.G`.G`oziyev Umumiy psixologiya,- 1-kitob. Toshkent 2004
3. E.G`.G`oziyev Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T. 2002.
4. Z.T.Nishonova, G.Q.Alimova Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi T. TDPU, 2005.
5. D.S.Bruner Psixologiya poznaniya.-M.,1977
6. M.V.Gamezo, IA.Domashenko Atlas po psixologii,-M., 1986
7. V.M.Karimova Psixologiya,-T., 2002